


Aholining inflyatsion kutilmalari

Iyun oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan o'zgarishsiz saqlanib qolib, **10,1** foizga teng bo'ldi.

Iyun, 2026

Jami 3 785 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025							2026				
	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	51	48	46	46	49	50	48	44	45	51	59	56
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	45	41	41	42	40	47	47	40	41	44	45	46
Transport xarajatlarining oshishi	27	26	25	25	24	29	30	25	25	27	29	27
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	34	31	27	26	23	25	22	24	19	24	15	23
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	24	22	22	23	20	24	22	20	19	22	23	22
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	24	26	25	27	26	26	23	24	23	28	19	19
Valyuta kursining o'zgarishi	30	24	22	22	20	23	24	28	27	27	19	19


Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i-energiya resurslari qimmatlashishi, ish haqi va nafaqalarning oshirilishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar va transport xarajatlari qimmatlashishi, monopoliya hamda narxlarning sun'iy oshirilishini** ta'kidlagan respondentlar ulushi kamaygan.

Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan sezilarli o'zgarishlarsiz saqlanib qolib, 9,9 foizni tashkil etdi.

Iyun, 2026

Jami 1 911 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025							2026				
	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	47	45	44	47	46	46	43	44	40	50	59	58
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	42	40	41	45	42	45	44	42	43	48	49	51
Transport xarajatlarining oshishi	31	31	30	33	30	37	35	34	33	39	33	37
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	34	33	29	25	23	26	24	23	24	26	18	24
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	25	24	26	28	26	25	24	27	26	33	19	23
Soliq yukining yuqoriligi	26	24	24	23	21	24	20	23	23	27	19	19
Valyuta kursining o'zgarishi	31	25	22	21	19	23	26	31	24	28	16	18

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i-energiya resurslari qimmatlashishi, transport xarajatlari va ish haqi oshishi, xomashyo narxlari qimmatlashishi** hamda **valyuta kursining o'zgarishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar qimmatlashishini** belgilagan respondentlar ulushi kamaygan.




Inflyatsion kutilmalar - sohalar kesimida

Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **maishiy xizmat** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **talabalar** tomonidan qayd etildi.


Iyun, 2026

Respondentlar: aholi – 3 785 ta, tadbirkorlar – 1 911 ta

Aholi



Tadbirkorlar



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **madaniyat** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **ishlab chiqarish** sohasida kuzatildi.


Inflyatsion kutilmalar - hududlar kesimida

Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Xorazm viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.


Iyun, 2026

Respondentlar: aholi – 3 785 ta, tadbirkorlar – 1 911 ta

Aholi



Tadbirkorlar



Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Jizzax viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Buxoro viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.




Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadi 4 mln so'mdan yuqori bo'lgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

Iyun, 2026

Jami 3 785 ta respondent qatnashdi



Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo'yicha javoblar taqsimoti

Hudud nomi	8% va undan kamroq	9% - 16%	17% va undan yuqori
Toshkent sh.	40	40	20
Farg'ona vil.	40	40	20
Surxondaryo vil.	42	47	11
Qashqadaryo vil.	46	39	15
Andijon vil.	51	29	20
Qoraqalpog'iston	51	33	15
Samarqand vil.	52	29	19
Navoiy vil.	52	41	7
Buxoro vil.	54	30	16
Toshkent vil.	56	31	14
Jizzax vil.	56	31	13
Sirdaryo vil.	57	32	11
Xorazm vil.	60	31	9
Namangan vil.	65	24	11

8% va undan kamroq

9% - 16%



17% va undan yuqori

Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Iyun oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan sezilarli o'zgarishlarsiz saqlanib qolib, **10,2** foizni qayd etdi.

Iyun, 2026

Jami 3 785 ta respondent qatnashdi



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Xorazm viloyatida** kuzatildi.




Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

May-iyun oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar

Iyun, 2026

Jami 3 785 ta respondent qatnashdi





Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadi 4 mln so'mdan yuqori bo'lgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

Iyun, 2026

Jami 3 785 ta respondent qatnashdi



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **maishiy xizmat** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **talabalar** tomonidan qayd etildi.